NEMIS VA O`ZBEK TILLARIDA JUFT SO`ZLAR VA ULARNING O`ZBEK TILIDA IFODA ETILISHI

Dilobar Abduxalilova
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Furqat Rahmatov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Zumrat Xudayberdiyeva
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola nemis va o`zbeк tillarida juft so`zlar mavzusiga bag`ishlangan bo`lib, unda har ikkala tilda mavjud bo`lgan juft so`zlar va ularning struktural va semantik tadqiqi, olimlarning bilidirgan fikrlari tahlil qilinadi. Kirish qismi ushbu maqolaning umumiy mazmunini ochib beradi. Bunda juft so`zlarning yasalishi, ma`no jihatdan sinonimik va antonimik juft so`zlardan tashkil topishi, tilshunoslikning frazeologizm sohasida tutgan o`rni, tavtalogik tarzda juftlashgan so`zlar haqida fikr yuritiladi. Adabioyotlar tahlili qismida qaysi o`zbek va nemis tilshunos olimlari ushbu sohada tadqiqotlar olib borganligi, ilmiy ishning bazasini yaratilishida asos bo`lib xizmat qilgan manba adabiyotlar to`g`risida fikr yuritiladi. Metodlar va nazariy asoslar qismida juft so`zlar haqida olimlarning fikrari, ularning o`rganish metodlari, bir biriga mos va qarama qarshi bo`lgan fikrlar tahlil qilinib, ushbu fikrlarga umumiy xulosalar beriladi. Maqolaning asosiy yutuqlaridan birini ko`rsatib beruvchi qism bu natijalar qismi bo`lib, ushbu qismda nemis tilidagi juft so`zlarning o`zbek tilida ifoda usullari ko`rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot mavzusi o`zbek tilida juda ham kam tadqiq qilingan hisoblanadi. Ushbu hodisa tilshunoslikda muammolar keltirib chiqaradi. Manbalarning yetishmasligiga qaramasdan biz juft so`zlarning struktural va semantik jihatdan mos kelish yoki mos kemaslik hollarini tadqiq qildik va statistik ma`lumotlar berishga harakat qildik. Nemis tilida juft so`zlar predloglar yoki bog`lovchilar yordamida bog`lanadi. O`zbek tilida esa quyidagicha ifoda imkoniyatlari mavjud: a)bog`lovchilar yordamida –va, yoki, b) Kelishik yordamida : -dan, c) tavtalogik juft so`zlar uchun – qo`shimchalar orqali : -rna und -ba, d) fonetik tovush o`zgarishi orqali e) chiziqcha

orqali. Ushbu qismda tadqiqot natijasi diagramma ko`rinishida beriladi. Adabiyotlar qismida esa mazkur maqola uchun foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati alifbo tartibida beriladi.

**Kalit so`zlar:** juft so`z, semantik ma`no, struktura, tavtalogik juft so`z, tadqiq, frazeologizm, sinonim, antonim, tilshunoslik

PARENT WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR EXPRESSION IN UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

This article is devoted to the topic of pairs of words in German and Uzbek, which analyzes the pair of words in both languages and their structural and semantic study, the views of scholars. The introductory part describes the general content of this article. It deals with the formation of pairs of words, the formation of semantically synonymous and antonymous pairs of words, the role of linguistics in the field of phraseology, tautologically paired words. In the section of literature analysis, the source literature is considered, which Uzbek and German linguists have conducted research in this field, which served as the basis for the creation of the basis of scientific work. their methods of study, their similarities and contradictions are analyzed, and general conclusions are drawn. One of the main achievements of the article is the results section, which discusses the methods of expression of German words in Uzbek. The subject of this research is very little studied in the Uzbek language. This phenomenon causes problems in linguistics. Despite the lack of sources, we studied the structural and semantic matching or inconsistency of pairs of words and tried to provide statistical data. In German, pairs of words are connected by prepositions or conjunctions. In the Uzbek language there are the following possibilities of expression: a) with the help of conjunctions -va, or, b) with the help of conjunctions: -dan, c) for tautalogic pairs of words - with suffixes: -rna und -ba, d) through a change in phonetic sound e) through a dash. In this section, the results of the study are presented in the form of a diagram. In the literature section, the list of references used for this article is given in alphabetical order.

Keywords: double word, semantic meaning, structure, tautological double word, research, phraseology, synonym, antonym, linguistics